

## Urganch shahrini landshaft tashkil etish tajribasi

Atabek Shuxratovich Xodjayazov  
otabek22111988@gmail.com  
La'lixon Ollabergan qizi Raximova  
lalixonrahimova@gmail.com  
Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaharlarni landshaft tashkil etishning ahamiyati yoritilgan. Urganch shahrini ko'kalamzorlashtirish sohasida erishilgan yutuqlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** landshaft, ko'kalamzor, o'simliklar, landshaft dizayni

## The experience of landscape organization of the city of Urganch

Atabek Shuxratovich Xodjayazov  
otabek22111988@gmail.com  
Lalikhon Rakhimova  
lalixonrahimova@gmail.com  
Urgench State University

**Abstract:** This article highlights the importance of landscape organization of cities. Progress achieved in the field of greening of Urganch city is described.

**Keywords:** landscape, greenery, plants, landscape design

Landshaft arxitekturasining rivojlanish yo'llarini tasavvur etish uchun landshaft arxitektorlari nima bilan shug'ullanishini va ularning bu kasbi arxitekturaning keng dunyosida qanday o'rinni egallashini tushunish zarur.

Landshaft arxitekturasining umum qabul qilingan arxitekturaviy amaliyot bilan taqqoslagandagi o'ziga xos xususiyati estetik va ekologo-insonparvarlik asosining boshchilik qiluvchi ahamiyatidir. Bunda yaratilayotgan muhitning funktsional va texnik jixatlari ularning muhimligiga qaramay bo'ysunuvchi o'rinni egalaydi. Bu sifat landshaft arxitekturasini san'atning bir turi, aynan bog'-park san'ati sifatida tushunilishiga asos bo'ladi.

Zamonaviy shaharlar markazlari hududini bog'lar, parklar, maydonlar, skverlar, piyodalar ko'chalari, xiyobonlar, bulvarlar, qirg'oq bo'ylari, qurilmalarning fon muhitini yagona bog'-park sistemasiga birlashtiruvchi o'zaro bog'liq piyodalar

hududi sistemasi tashkil etadi. Markazlarning landshaft tashkil etilishiga qo'yiladigan muhim talablar loyihalashning ma'lum bosqichlariga va uslublariga rioya qilish hisoblanadi. Markazdagi ochiq maydonlarni funktsional zonalash landshaftni loyihalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Zonalarini tashkil etish uchun eng qulay tabiiy sharoitga ega hududlar - daryo yoki sun'iy yaratilgan havzalarning bo'ylari, ko'kalamzorlar, bog'lar, parklar hududi, maydonlar, xiyobonlar, bulvarlar, piyodalar yuradigan ko'chalar va boshqalar ajratiladi.

Shaharsozlikda yashil o'simliklarning ahamiyati katta. Ular shahar harorat rejimining quvvatli regulatori bo'lib, havo tarkibi va tozaligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shahar shovqiniga qarshi kurashda foydalaniladi, shaharning landshaft jozibaliligini yaratadi. Insonning holatini, unga katta gigienik va psixologik ta'sir ko'rsatishni yaxshilaydi. Yashil o'simliklar havoni tozalaydi, chunki ular yirik va tez cho'kuvchi chang zarralarini o'zida ushlab qoladi. Ko'kalamzorlar havoning qizib ketishini kamaytiradi va bu bilan shahar ustidagi chang va tutundan iborat gumbazni hosil qiluvchi yuqoriga ko'tarilayotgan havo oqimini harakatini qaytaradi.

So'nggi yillarda respublikamizning ko'pgina shaharlarida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Yangi bog'lar va xiyobonlar tashkil etilmoqda. Ko'chalar va ochiq maydonlar landshaft arxitekturasi qonuniyatlari asosida shakllantirilmoqda. Ko'pgina shaharlarda bir vaqtlar tashlandiq holatga kelib qolgan kanal bo'yi hududlari obodonlashtirilib, aholining maroqli dam olishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Xorazm viloyatining markazi hisoblanmish Urganch shahri ham so'nggi yillarda tubdan o'zgarib, o'zgacha qiyofa kasb etmoqda. Quyida shaharning diqqatga sazovor landshaft arxitekturasi obyektlari haqida fikr yuritimiz.

Shovot kanali - Xorazm viloyati va Turkmanistonning toshhovuz viloyatidagi respublikalararo magistral kanal. Uzunligi 150 km bo'lgan ushbu kanalning 78 km qismi O'zbekistonda, 72 km qismi esa Turkmanistonda joylashgan. Suv o'tkazish imkoniyati 210 m<sup>3</sup>/s. 1940 yilgacha kanal Amudaryoning chap sohilida o'zining bosh suv olgichiga ega bo'lgan. 1940 da uzunligi 14,6 km bo'lgan tutashtiruvchi kanal orqali Toshsoqa kanaliga ulandi. Kanal Urganch shahri markazidan oqib o'tadigan qismining ikki qirg'oqi odamlar dam olishi uchun turli xil inshootlar va binolar qurilgan. Ayniqsa kechki vaqt juda chiroyli tus oladi.

2013 yil 9 sentyabrda Urganchda "Yoshlar ko'li" majmuasi ochildi. Uning hududi 15,5 ga maydonga ega madaniy-me'moriy majmua aholining dam olishi va sayyohlarning tashrifi uchun mo'ljallangan. Majmua tarkibida Samarkand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari tarixiy yodgorliklari-registon maydoni, minorai-kalon, kalta minor va boshqalarning maketlari mavjud. Shuningdek, park hududida choyxona, ikkita kafe, shaxmat klubi va boshqa inshootlar, turli attraktsionlar mavjud. Ilgari Urganch markazidan unchalik uzoq bo'lmagan joyda joylashgan ko'l

“komsomolskoe” deb nomlangan. Afsuski hozirgi kunda bu joy e'tiborga muhtoj joylardan biriga aylanmoqda.

Shaharning markaziy qismi hamda ko'pgina magistral ko'chalar shu kunlarda o'zining yanada ko'rkam qiyofasiga kirish taraddudida. Mustaqillikning dastlabki yillarida ushbu ob'ektlar boshqa bir ko'rinishda bo'lgan. Shaharning bosh markazi kompozitsiyasi unchalik yaxshi shakllanmaganligi, ochiq, bo'sh hududlarning nihoyatda katta maydonni egallaganligi ko'zga tashlanardi. Xozirgi kunda maydonni qayta shakllantirish ustida ish olib borilmoqda, o'ylaymizki, ushbu maydon yaqin kunlarda o'zining mukammal yechimiga ega bo'ladi.

Shaharning markaziy ko'chalarini landshaft tashkil etish bo'yicha ham izlanishlar, amaliy ishlar olib borilmoqda. Yo'llar ravon bo'lmoqda. Zamonaviy ko'rinishdagi yoritgichlar o'rnatilmoqda. Ammo Urganch shahrida ham respublikamizning boshqa shaharlaridagi kabi soya beruvchi daraxtlar o'rniga igna bargli daraxtlar ekish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Bu hol, albatta, yoz mavsumida piyodalarga noqulaylik tug'dirishi tabiiy. Ko'chalar bo'ylab ekilayotgan gullar turlari ham nixoyatda kam. Asosan, petunya va shafran navli gullar ko'p ekilmoqda. Bu ko'chalar landshaftining bir xil bo'lib qolishiga sabab bo'lib qolmoqda. Lekin shuni takidlash kerakki keying yillarda archalar orasiga yangi navla katta bargli daraxtlar ham ekilmoqda buning ijobiy natijasini kutib qolamiz.

1999 yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan Urganch shahrining markazida, shovot kanalining so'l sohilida Jaloliddin Manguberdi majmuasi bunyod etildi. Majmua sharqona darvoza, favvoralar, Jaloliddin Manguberding ulkan haykali va 15 gektar bog'dan iborat etib shakllantirildi. Majmua markazida Jaloliddin Manguberding 14,5 metrlik salobatli haykali joylashgan. Yodgorlik mamlakatimizdagi eng baland monumentlardan biri hisoblanadi. Majmuaning asosiy kirish qismida moviy rangdagi gumbaz bilan yopilgan darvoza mavjud. Darvozaning har ikki qanotiga o'ntadan jilo berilgan Xorazm milliy hunarmandchiligiga oid yog'och o'yma ustun o'rnatilgan. Oldinda ulkan favvora, ichkarida yana uchta favvora bunyod qilingan. Majmua hududi ko'kalamzorlashtirilgan. Xozirgi kunda ushbu majmuadan Jaloliddin Manguberdi haykali olindi, lekin boshqa inshootlar va nihoyatda ko'rkam gujumlar qoldi va shaharning diqqatga sazovor yerlaridan biri hisoblanadi.

Urganchning yana bir ahamiyatli landshaft obyekti Amir Temur istirohat bog'i hisoblanadi. Ushbu bog' aholi o'rtasida o'zining qiziqarli attraksionlari bilan mashhur. Bog' hududiga kirish go'zal holatda tashkil etilgan. Bog'ning ichkarisida piyodalar uchun qulay yo'laklar mavjud. Ammo ko'kalamzorlashtirish masalasi ijobiy hal qilingan deb bo'lmaydi, chunki bundan bir necha yil avval ushbu maskanda baland va soya beruvchi daraxtlar o'rnini igna bargli daraxtlar egallagan. Mahalliy sharoitga moslashgan gujum daraxti esa kam miqdorda saqlanib qolgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar, garchand, Urganch shahrining landshaft tashkil etilishiga to'liq baho berish imkoniyatini bermasa ham ushbu masalaning dolzarbligini va bu borada chuqur tadqiqodlar o'tkazish muhimligini ko'rsatadi. Tadqiqodlar natijasi esa Urganchning yanada go'zal va aholi uchun qulay bo'lgan qiyofaga ega bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan izchil harakatlar ham yuksak turistik salohiyatga ega bo'lgan Xorazm vohasi uchun xam muhimdir. Shunday ekan, bu maskanga tashrif buyuruvchi har bir mehmon uchun shaharning diqqatga sazovor joylarini landshaft tashkil etish orqali ularni yanada jozibador qilib shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. L.A.Adilova landshaft arxitekturasi 1 qism. O'quv qo'llanma. Toshkent- 2009